

ESANOVA Kamola Ilhomjon qizi
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Xalqaro munosabatlar 3-bosqich talabasi
 Email: esanovak7@gmail.com
 Ilmiy rahbar: dotsent M.Xujaev

AYOLNING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RN

РОЛЬ ЖЕНЩИНЫ В ОБЩЕСТВЕ

THE ROLE OF WOMEN IN SOCIETY

Annotatsiya: Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar bilan belgilanadi. Bu taraqqiyot jarayonida ayollarning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtirokida huquq va erkinliklari amalda ta'minlanganligi davlatlar taraqqiyoti va yurt kelajagining muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayolning jamiyat hayotidagi o'rni barcha davrlarda muhim mezon bo'lib kelgan.

Kalit so'zlar: Xotin-qizlar, yurt tayanchi, jamiyat rivoji, farzand tarbiyasi, oila instituti, taraqqiyot.

Аннотация: Развитие любого государства и общества базируется на ряде факторов. В этом процессе вопрос о женщинах, их участии в общественно-политических отношениях, обеспечении их прав и свобод является важным показателем развития государств и будущего страны. Ведь женщина и ее место в жизни общества всегда были важным критерием.

Ключевые слова: Женщины и девочки, поддержка страны, развитием развития государств и будущего страны. Ведь женение сообщества, детское образование, институт семьи, развитие.

Abstract: The development of any state and society is based on a number of factors. In this process, the issue of women, their participation in social and political relations, the fact that their rights and freedom are ensured is an important index of the development of states and the future of the country. After all, a woman and her place in the life of society have always been an important criterion.

Key words: Women, support, community development, child education, family institution, development.

KIRISH

Insoniyat tarixini qadim ibtidodan buyon ayollarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ular erkaklar

bilan bir qatorda oilan va jamoa ishlarini bajarib kelgan. Tariximizga nazar tashlasak ayol oila, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanib qolmay, o'z turmush o'rtog'ining eng yaqin maslahatgo'yi bo'lganligini bilan birgalikda, o'z zamonining taniqli shoirasi, davlat rahbari bo'lganligini, turmush o'rtog'i bilan hayot, dunyo tashvishlarini birga tortganini barcha yaxshi biladi. Sharqda ayniqsa ayollarga hurmat cheksiz bo'lib, ular ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida faol bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bular sirasiga To'maris, Saroymulxonim, Gulbadanbegim, Zebunisobegim, Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin va boshqa shu kabi ayollarni misol qilishimiz mumkin [1].

Yangi O'zbekistonda ham xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish jamiyat taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilanib, yurtimizda oila va ayollar masalasi davlat siyosati darajasiga yetdi. Chunki, ayol jamiyatning negizi hisoblangan oilada farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanish bilan birga jamiyatda ham o'z o'rniga ega bo'lib, Vatanimiz ravnaqi va osoyishtaligi, xalqimiz farovonligi yo'lida xizmat qiladigan barkamol insonlarni voyaga yetishida muhim omil hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Tarixga nazar solsak, XIX asr oxiri va XX asr boshlarining yetakchi ma'rifatparvarlari M. Behbudiy, A. Fitrat, A. Avloniy xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni borasida keng fikrlar bildirganlar. Masalan, Fitratning "Oila boshqarish tartiblari" asarida shunday fikrlar bor: **"Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya'ni shunday qilishimiz lozimki farzandlarimiz iymonli, fidokor bo'lib ulg'ayib, o'z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar. Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz –millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur."**[7].

Ma'rifatparvar mutafakkirimiz Mahmudxo'ja Behbudiy aytganidek, **"Xotin-qizlarni jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida qabul qilmasdan, oila masalasini to'g'ri hal qilmasdan, yosh avlodni to'g'ri yo'ldan tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uni taraqqiyot sari yo'naltirish**

mumkin emas, oxir-oqibat millat taqdiri uning ayollari va oilasining holatiga bog'liqdir.

Ayollarning jamiyatda tutgan o'rniga berilgan bu baho hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, ayollarni ulug'lab, ardoqlab, boshiga ko'tarib yashaydigan xalq o'zining yuksak madaniyati va oliyjanob qadriyatlarini amalda namoyon qiladigan millat sifatida hurmat qozonadi. Ayolsiz hayotni, taraqqiyotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular jamiyatning yetakchi kuchlaridir. Zero, ayol kamolotisiz jamiyat kelajagi bo'lmasligiga to'la ishonch hosil qilamiz.

Ayol bir qo'lida beshikni, bir qo'lida dunyoni tebratadi. Darhaqiqat, ayollar o'zlarining ruhiy-ma'naviy go'zalliklari bilan oilada beka va tarbiyachi bo'lsalar, jamiyatda ma'naviy ustun vazifasini amalga oshirishga mas'uldirlar. O'zbek ayollari bugungi kunda o'z aqli, bilimi, iste'dodi, mehnatsevarligi, shijoati bilan ana shunday murakkab vazifalarni samarali ado etib kelyapti, desak mubolag'a bo'lmaydi. Sharqning oqila, dono, ma'naviy go'zal va maftunkor ayollari nafaqat ro'zg'orda, balki davlat ishlarida ham turmush o'rtoqlariga yelkadosh bo'lib, jamiyatning ravnaqiga o'z hissalarini qo'shganlar. Ana shunday salohiyatga ega bo'lgan ayollar oilada farzandni tarbiyalash bilan birga, jamiyatda ilm-ma'rifatning yuksalishiga, qadriyat va an'analarning rivojiga ta'sir etadilar [1].

Ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rnini hamisha muhim mezon bo'lib kelgan. Dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro hamjamiyatda munosib o'ringa ega bo'lgan O'zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiyoti silsilasida ayolning o'rnini, uning siyosiy va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o'rnini va roli har qachongidanda muhim. Shu bois islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g'oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, o'zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat. Zero, inson qadrini ulug'lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo'tabar onalarimizni e'zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlash orqali ro'yobga chiqadi [2].

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Ayollarni izzat-ikrom qilish, ulug'lash, ardoqlash, og'irini yengil qilish ota-bobolarimizdan qolgan muqaddas udumdur. Ma'lumki muqaddas Qur'oni Karimning eng katta suralaridan biri – "Niso", ya'ni "Ayollar" deb ataladi. Alloh Taolo ushbu surada insonlarni ayollarga adolatli munosabatda bo'lishga da'vat etadi va bu ilohiy so'zlar zahirida albatta teran hikmat mujassam" [4].

Darhaqiqat, Allohning mo'jizasi bilan Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vassalamni dunyoga keltirgan zot – ayol, Amir Temurni beshigini tebratgan zot ham ayol, Navoiyni oq sut berib katta qilgan ham ayol, tunlarni bedor o'tkazib, Ulug'bekni voyaga yetkazgan ham ayol. Shunday ekan, ayol kishiga eng avvalo millat tarbiyachisi sifatida qaramoq lozim. Shu o'rinda aytish joizki, xotin-qizlarning ilm-ma'rifatli, madaniyatli bo'lishi, ya'ni ayol kishining ijtimoiy hayotdagi, jamiyatdagi o'rnini ta'lim-tarbiyani to'g'ri izchil tashkil etishda faol ishtirok etadi. Zero, ayol fuqarolik jamiyati kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash hamda, farzandlar tafakkurini o'zgartirish bilan bog'liq o'ta dalzarb va muhim masalalarni hal qilish qudratiga egadir.

Prezidentimiz SH. Mirziyoyevning xotin-qizlarga qaratayotgan yuksak e'tibori – xotin-qizlarni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, jamiyat va oilada mavqeyini yanada oshirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini ta'minlash – har bir ayol yurtimizda o'zining munosib o'rnini topishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berdi. Bu borada, 2020-yil 20-fevral kuni "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilindi. Bunda, xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishni belgilab berilgan qator vazifalar ko'ndalang qo'yildi [5].

Xotin-qizlar mavqeyini oshirish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ulardagi salohiyatning namoyon etilishi uchun jamiyatda yaratilgan imkoniyatlar doirasini yanada kengaytirish o'z-o'zidan oilalarning mustahkamlanishi, jamiyat taraqqiyoti rivoji, qolaversa, xalqaro miqyosda ham mamlakatimiz nufuzining yanada yuksalishi, farzandlar tarbiyasining yaxshilanishi, xotin-qizlardan aksariyatining nafaqat o'z oilalari uchun, balki jamiyat taraqqiyoti uchun, jamiyat rivoji uchun

fidoyilarcha mehnat qilishlarining faollashuvi, huquqiy demokratik jamiyat qurish jarayonida ayollar ishtirokining bundan-da ko'payishiga ko'maklashishi muqarrar.

Ayollarga e'tibor chinakam davlat siyosati darajasiga ko'tarildi: uning huquqiy va institutsional asoslari tubdan takomillashtirildi. Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish faoliyati: ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish; ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish; aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish; huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me'yorlar asosida o'qitish kabi asosiy yo'nalishlardan iborat. Jamiyat taraqqiyoti esa mana shu omillarga bevosita bog'liqdir. Shu bois, xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish masalasini to'g'ri va ijobiy hal qilishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- xotin-qizlarga nisbatan barcha shakldagi kamsitish va zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik;

- jamiyatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish;

- ayol va erkakning mas'uliyati, o'zlarining oiladagi burchini to'liq his qilishi, o'zaro hurmati va oilaviy muammolarning yechimini bafurja hal qilishida imkoniyatlar yaratish;

- ayollarning huquqiy madaniyati va diniy savodxonligini oshirish;

- mahalla fuqorolar yig'inida ota-onalarning mafkuraviy, pedagogik, psixologik bilim saviyasini oshirib borish;

- ayollarning ilmiy bo'lish darajasini oshirishni ta'minlashda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

- telekanallar orqali oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xorij seriallarini ko'paytirgandan ko'ra, milliy mentalitetimizga hos oilaviy munosabatlarni aks ettiradigan dasturlar sonini ko'paytirish;

- mahalla fuqorolar yig'inida psixologik treninglar tashkil etish va unga aholini qiziqtirish.

- qizlarga zamonaviy ta'lim-tarbiya berishga ko'maklashish; - xotin-qizlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash [9].

Jamiyatda ayol qadr-qimmati, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida davlat bosh islohotchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Zotan, jamiyatda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini

ifoda etish, davlat va jamiyat munosabatlarida ayollarning o'rni va rolini yanada oshirish, ularning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy sohalarida manfaatlarini himoya qilish masalasi Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans avlodini shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi [6].

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kunda har qanday jamiyatning asosiy "ko'zgusi" –xotin-qizlar ekanligi shubhasizdir. Chunki, jamiyatning ijtimoiy tuzumi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, o'sha jamiyat aholisi turmushining farovonlik darajasi, oilalar barqarorligi, kelajak avlod –farzandlar tarbiyasi, iqtidori, jamiyatdagi intellektual salohiyat, ma'naviyat va madaniyat, ma'rifat, qo'yingki, barcha jabhalarda erishilgan yutuqlar shu jamiyat taraqqiyotiga xotin-qizlarning qo'shadigan hissasi va o'sha jamiyatning ayollarga munosabati bilan belgilanadi. Xalqimiz orasida "Ayol bir qo'li bilan beshikni, ikkinchi qo'li bilan dunyoni tebratadi", degan naql bejiz vujudga kelmagan. Zero, ayol oilada farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanishi bilan birga, jamiyatda ham o'z o'rniga ega bo'lmog'i lozim.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tadjiyeva F., Ayolga e'tibor – jamiyat kelajagiga e'tibordir // Barqaror taraqqiyotda ayollar: ilm-fan va sifatli ta'lim III xalqaro konferensiya to'plami. – B. 212.
2. <https://gender.org/ayolning-jamiyat-hayotidagi-orni.html>
3. Qurbonova D. E'tibor – ayolga zarur unsur // Journal of integrated education and research.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // "Xalq so'zi" -2020-yil, 8-mart.
5. Jamiyatda ijtimoiy ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila vaxotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // Xalq so'zi -2020. -20 fev.
6. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/ayol-va-uning-jamiyat-hayotidagi-orni-hamisha-muhim-mezon-bolib-kelgan.>
7. Fitrat A. Oila. – Toshkent, 2016. – 144 b.
8. https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/639/ARTC_1_5_FIL_4
9. file:///C:/Users/user/Downloads/ayol-jamiyatning-yetakchi-kuchi.pdf